

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA HISSIYOT METAFORALARINING LINGVOMADANIY KATEGORIZATSIYASI

Fayziyeva Aziza Anvarovna,

Buxoro davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

a.a.fayzieva@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida hissiyot metaforalarining lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hissiyotlarni ifodalovchi metaforik birliklar qanday konseptual modellar asosida shakllanishi, ularning umumiy va tilga xos jihatlari aniqlanadi. Nazariy asos sifatida konseptual metafora nazariyasi va lingvomadaniyatshunoslik yondashuvlaridan foydalanildi. Empirik material ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy, publitsistik hamda ommaviy yozma nutqdan olingan metaforik birliklardan tarkib topdi. Natijada hissiyot metaforalari fazoviy yo‘nalish, harorat va intensivlik, og‘irlik va bosim, ichki nazorat hamda ijtimoiy munosabat modellari asosida shakllanishi aniqlandi. Ikki til o‘rtasida umumiy kognitiv asos mavjud bo‘lishi bilan birga, madaniy tajribadan kelib chiqadigan tizimli farqlar ham borligini tadqiqot ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: hissiyot metaforasi, lingvomadaniyat, konseptual metafora, qiyosiy tahlil, metaforik model, ingliz tili, o‘zbek tili.

Аннотация. В данной статье сопоставительно анализируются лингвокультурные особенности метафор эмоций на материале английского и узбекского языков. Выявляются концептуальные модели метафоризации эмоций, определяются их общие и языково-специфические характеристики. В качестве теоретической основы применяются теория концептуальной метафоры и лингвокультурологический подход. Эмпирический материал составили метафорические единицы, отобранные из художественных, публицистических и иных письменных текстов обоих языков. Результаты показали, что метафоры эмоций формируются на основе пространственных, температурных, весо-давленческих, регулятивных и социально-реляционных моделей. Исследование выявило как общую когнитивную базу, так и культурно обусловленные различия в метафорическом осмыслении эмоций.

Ключевые слова: метафора эмоций, лингвокультура, концептуальная метафора, сопоставительный анализ, английский язык, узбекский язык.

Abstract. This article comparatively examines emotion metaphors in English and Uzbek from a linguocultural perspective. The study identifies the conceptual models underlying the metaphorical representation of emotions and determines their shared and language-specific features. The theoretical framework draws on Conceptual Metaphor Theory and linguocultural approaches. The empirical material consists of metaphorical units selected from literary, journalistic, and general written texts in both languages. The analysis reveals that emotion metaphors are structured through spatial, temperature-intensity, weight-pressure, inner-control, and social-relational models. The study shows that while a common cognitive basis exists, systematic culturally motivated differences also shape the metaphorical construal of emotion in the two languages.

Keywords: emotion metaphor, linguoculture, conceptual metaphor, contrastive analysis, English, Uzbek.

Kirish. Hissiyotlarning tilda ifodalanishi zamonaviy tilshunoslikning kognitiv, pragmatik va lingvomadaniy yo‘nalishlari tutashgan nuqtada o‘rganiladi. Hissiyot bir tomondan biologik va psixologik tajriba bo‘lsa, ikkinchi tomondan jamiyatda qadriyatlar, kommunikativ me‘yorlar va madaniy kontekst asosida shakllanadigan mazmun sifatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan hissiyot metaforalari badiiy tasvir vositasi bo‘lib qolmasdan, insonning ichki kechinmalarini anglash va tartiblashga xizmat qiluvchi bilish mexanizmi hisoblanadi [1, C.3–6; 2, C.19–22].

Konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra hissiyotlar tana, makon, harakat, harorat, bosim, og‘irlik kabi manba sohalar orqali tushuntiriladi [1, C.14–21; 2, C.20–40]. Biroq turli tillarda qaysi metaforik modellar odatiy tus olishi, qaysi obrazlar keng qo‘llanishi madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq [3, C.120–125; 4, C.2–4]. Ingliz va o‘zbek tillari tarixiy tajriba, qadriyat tizimi hamda kommunikativ uslubi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun bu tillarda hissiyot metaforalari umumiy kognitiv asosga ega bo‘lish bilan birga, o‘ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarni ham aks ettiradi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda hissiyot metaforalari ko‘pincha bir til doirasida tavsiflanadi yoxud alohida misollar asosida umumlashtiriladi. Ularni takroriy manba sohasi, baholovchi xarakteri, nutqiy vazifasi va madaniy motivatsiyasi asosida tizimli ravishda guruhlash masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. O‘zbek tili materialida metafora tahlili ko‘proq frazeologiya va uslubshunoslik doirasida olib borilgan, empirik kuzatishlar esa har doim ham korpusga tayangan emas [6; 7]. Ingliz tili bo‘yicha tadqiqotlar nisbatan kengroq bo‘lsa-da, ularni o‘zbek tilidagi obrazli tizim bilan qiyoslashda metodik mutanosiblik masalasi yuzaga keladi [3, C.252–258; 4, C.24–31]. Shu sababli hissiyot metaforalarining lingvomadaniy kategorizatsiyasini qiyosiy asosda ko‘rib chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida hissiyot metaforalarining lingvomadaniy kategorizatsiyasini aniqlash va qiyosiy tahlil orqali universal hamda tilga xos modellarni ajratib ko‘rsatishdir. Tadqiqotning yangiligi shundaki, unda hissiyot metaforalari alohida misollar yig‘indisi sifatida emas, balki ikki til doirasida o‘zaro bog‘liq kategoriyalar tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Metafora masalasi kognitiv tilshunoslikda abstrakt tushunchalarni konkret tajribalar orqali anglash vositasi sifatida talqin qilinadi. Lakoff va Jonson metaforaning inson tafakkuridagi asosiy rolini ko‘rsatishgan [1, C.3–6], keyingi tadqiqotlarda esa bu yondashuv hissiyotlar sohasiga tatbiq etildi. Z. Kövecses hissiyotlar ko‘pincha harorat, bosim, kuch, harakat va modda kabi manba sohalar orqali ifodalanishini nazariy jihatdan asoslab berdi [2, C.20–40]. A. Vejbitskaya esa hissiyot tushunchalari turli tillarda bir xil emasligini, ularning ifodalanishi madaniy tajriba bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatdi [4, C.24–31].

So'nggi yillarda metaforaning madaniy va diskursiv xususiyatlariga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Banaruee va boshqalar turli tillardagi metaforik tizimlarning o'xshash va farqli tomonlarini o'rganib, madaniy kontekstning metafora tanlashga ta'sirini ko'rsatdilar [9]. Shuningdek, metaforalarning turli tillar va madaniyatlardagi o'rni hamda diskursdagi vazifasi tadqiq qilinmoqda [10]. Ferré til va hissiyot o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilib, hissiy ma'noning til vositasida qanday qurilishini [11], Hoemann va hammualliflari esa hissiy ma'noning kontekstda shakllanishi mexanizmlarini o'rgandilar [12]. Quvonch va qayg'uga oid idiomalarining madaniyatga xos xususiyatlari Allawama, Zibin va Altakhaineh tahlillarida kuzatish mumkin [13].

O'zbek tilshunosligida hissiyotlar asosan emotivlik, emotsionallik va ifoda vositalari doirasida o'rganilgan. Frazologik birliklar, baholovchi leksika va ko'chma ma'noli ifodalar hissiyotlarni ifodalashning muhim vositalari sifatida qaraladi [6; 7]. Ammo hissiyot metaforalarini lingvomadaniy nuqtai nazardan tizimli kategorizatsiya qilish, ayniqsa ingliz va o'zbek tillari materiallarini qiyosiy asosda solishtirish masalasi hali to'liq yoritilmagan.

Tadqiqotda kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatshunoslik yondashuvlariga tayanilib, nazariy asos sifatida konseptual metafora haqidagi qarashlar [1, C.3–6; 2, C.4–9; 5, C.5–32] qabul qilindi.

Empirik material sifatida ingliz va o'zbek tillaridan hissiyotlarni ifodalovchi metaforik birliklar tanlab olindi. Ingliz tili uchun zamonaviy badiiy nasr va ommaviy yozma nutq materiallaridan foydalanildi. O'zbek tili uchun badiiy va publitsistik matnlar asos qilib olindi. Tanlash mezoni sifatida hissiyot nomlari bilan bog'liq barqaror birikmalar hamda metaforik ifodalar belgilandi.

Metaforik birliklarni aniqlashda ularning kontekstual ma'nosi bilan asl ma'nosi o'rtasidagi farq hisobga olindi. Agar birlik o'zining bevosita ma'nosidan farqli tarzda qo'llanib, hissiy holatni boshqa soha orqali ifodalasa, u metaforik birlik sifatida qayd etildi. Takrorlanish mezoni ham qo'llanildi: metaforik model turli kontekstlarda uchrashi va ma'no jihatidan barqaror bo'lishi shat qilindi.

Tahlil bir necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlab metaforik birliklar ajratib olindi, so'ng ular manba sohalar asosida guruhlandi. Keyingi bosqichda birliklar lingvomadaniy xususiyatlariga ko'ra tahlil qilindi. Bunda baholovchi xarakteri, hissiyotning nazorat qilinishi, agentlilik hamda nutqdagi vazifasi mezon sifatida olindi. Qiyosiy tahlilda ikki til o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri tarjima emas, balki konseptual o'xshashlik va farqlar asosiy mezon sifatida belgilandi [5, C.14–18; 8, C.30–42].

Natijalar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillarida hissiyot metaforalari bir necha umumiy model asosida shakllanadi. Biroq har bir model doirasida tilga xos xususiyatlar va madaniy motivatsiyalar aniq namoyon bo'ladi. Quyida har bir model ikki til materialida qiyosiy tarzda ko'rib chiqiladi.

1. Fazoviy yo‘nalish modeli. Har ikkala tilda hissiyotlar ko‘tarilish yoki pasayish orqali tushuntiriladi. Ingliz tilida happiness is up, sadness is down modeli keng tarqalgan: my spirits rose, I’m feeling down, she was on cloud nine, his heart sank kabi ifodalarda ijobiy holat yuqorilik bilan, salbiy holat pastlik bilan bog‘lanadi [1, C.15–17]. O‘zbek tilida ham shunga o‘xshash model ishlaydi: *ruhi tushmoq, kayfiyati ko‘tarilmoq, boshi osmonga yetmoq* kabi birliklarda hissiy tajriba fazoviy yo‘nalish vositasida ifodalanadi.

Ikki til o‘rtasidagi farq shundaki, ingliz tilida fazoviy metaforalar ko‘proq individual kayfiyat holatini ifodalasa, o‘zbek tilida ular ko‘pincha ijtimoiy kontekst bilan ham bog‘lanadi. Masalan, *boshi osmonga yetmoq* birligida mamnuniyat ijtimoiy muvaffaqiyat yoki e‘tirof bilan bog‘liq holda qo‘llanadi.

2. Harorat va intensivlik modeli. G‘azab va kuchli hissiyotlar har ikkala tilda harorat va ichki energiya orqali ifodalanadi. Ingliz tilida ANGER IS HEAT modeli yaxshi o‘rganilgan [2, C.21–23]: *she was boiling with rage, he blew his top, a heated argument, to simmer with resentment*. O‘zbek tilida esa *g‘azabi qaynamoq, jahli chiqmoq, qizishib ketmoq* kabi birliklar shu modelga kiradi. Bundan tashqari, *ko‘ngli sovimoq* birligida haroratning pasayishi hissiy aloqaning zaiflashuvini anglatadi.

Har ikkala tilda issiqlik kuchayish va nazoratdan chiqish xavfini bildirsa, sovuqlik hissiyotning so‘nishi yoki uzoqlashuvni ifodalaydi. Biroq ingliz tilida harorat metaforalari ko‘proq g‘azabga xos bo‘lsa, o‘zbek tilida ular munosabatdagi o‘zgarishlarni ham qamrab oladi.

3. Og‘irlik va bosim modeli. Salbiy hissiyotlar ko‘pincha fizik yuk yoki bosim tajribasi orqali ifodalanadi. Ingliz tilida *a heavy heart, weighed down by grief, under pressure, a burden on the soul* kabi birliklar keng tarqalgan. O‘zbek tilida ham *og‘ir botmoq, ezilmoq, yengil tortmoq, bosim qilmoq* kabi metaforalar shu modelga kiradi.

E‘tiborli jihati shundaki, o‘zbek tilida og‘ir so‘zi ikki xil baholovchi xarakterga ega. Ba‘zi hollarda u qayg‘u va tashvishni bildirsa (og‘ir botmoq), boshqa kontekstlarda jiddiylik, vazminlik va salmoqlilik sifatida ijobiy baho ham beradi. Ingliz tilida *heavy* so‘zi ham ikki taraflama ishlaydi (*a heavy heart* va *heavy responsibility*), ammo o‘zbek tilida bu ikkilamchilik madaniy qadriyatlar bilan ko‘proq bog‘liq: vazminlik va sabr jamiyatda yuqori baholanadi.

4. Ichki nazorat va o‘zini tiyish modeli. Har ikkala tilda hissiyotlarni boshqarish metaforalari mavjud. Ingliz tilida *to keep one’s feelings in check, to bottle up emotions, to hold back tears, to contain one’s anger* kabi birliklar hissiyotni ichki idishda saqlanadigan modda sifatida tasvirlaydi. O‘zbek tilida esa *o‘zini bosmoq, ichiga yutmoq, jahlini tiyib turmoq, sabr qilmoq* kabi birliklar hissiyotni nazorat qilishni ifodalaydi.

Ikki til o‘rtasida muhim farq shundaki, ingliz tilida hissiyotni yashirish ko‘pincha salbiy hodisa sifatida baholanadi: *to bottle up emotions* birligida nazorat ortiqcha bosilish va portlash xavfi bilan bog‘lanadi. O‘zbek tilida esa *sabr qilmoq, o‘zini bosmoq* kabi

birliklar ko‘proq ijobiy baholanadi. Ular andisha, odob va vazminlik me‘yorlari bilan bevosita bog‘liq. Ya‘ni ingliz tilida nazorat kuchi cheklash sifatida tushnilsa, o‘zbek tilida u ko‘proq axloqiy yetuklik belgisi sifatida idrok etiladi.

5. Ijtimoiy munosabat modeli. Hissiyotlar ko‘pincha aloqa, yaqinlik yoki uzilish orqali ham tushuntiriladi. Ingliz tilida *to bond with someone, to grow apart, to break ties, to cling to hope* kabi ifodalarda hissiy holat munosabatning mustahkamlanishi yoki uzilishi sifatida tasvirlanadi. O‘zbek tilida *umid bog‘lamoq, umidi uzilmoq, orasi sovimoq* kabi birliklar ham shu modelga tegishli.

Ikkala tilda ham umid bog‘lanish orqali, umidsizlik esa uzilish orqali ifodalanadi. Biroq o‘zbek tilida munosabat metaforalari ko‘proq oilaviy va jamoa kontekstida qo‘llanadi. Masalan, *orasi sovimoq* birligi ko‘pincha qarindoshlar yoki yaqin kishilar o‘rtasidagi munosabat haqida ishlatiladi. Ingliz tilida esa *to grow apart* birligida individual o‘zgarish ko‘proq markazda turadi.

1-jadval

Ingliz va o‘zbek tillarida hissiyot metaforalarining qiyosiy ko‘rinishi

Model	Ingliz tilidagi misollar	O‘zbek tilidagi misollar	Asosiy farq
Fazoviy yo‘nalish	<i>my spirits rose, I’m feeling down, on cloud nine</i>	<i>ruhi tushmoq, kayfiyati ko‘tarilmoq, boshi osmonga yetmoq</i>	O‘zbek tilida ijtimoiy kontekst kuchliroq
Harorat va intensivlik	<i>boiling with rage, a heated argument, to simmer</i>	<i>g‘azabi qaynamoq, jahli chiqmoq, sovib qolmoq</i>	O‘zbek tilida munosabat sovrishi ham qamraladi
Og‘irlik va bosim	<i>a heavy heart, weighed down by grief, under pressure</i>	<i>og‘ir botmoq, ezilmoq, yengil tortmoq</i>	O‘zbek tilida og‘ir ijobiy baho ham beradi
Ichki nazorat	<i>to bottle up, hold back tears, contain anger</i>	<i>o‘zini bosmoq, ichiga yutmoq, sabr qilmoq</i>	Inglizda salbiy, o‘zbekda ijobiy baholanadi
Ijtimoiy munosabat	<i>to bond, to grow apart, to break ties</i>	<i>umid bog‘lamoq, umidi uzilmoq, orasi sovimoq</i>	O‘zbekda oilaviy kontekst ustunroq

Muhokama. Olingan natijalardan ko‘rinadiki, ingliz va o‘zbek tillarida hissiyot metaforalari bir qator umumiy konseptual modellar asosida shakllanadi. Fazoviy yo‘nalish, harorat, og‘irlik va munosabat kabi manba sohalari ikkala tilda ham faol. Bu holat Lakoff va Jonson [1, C.3–6] tomonidan ilgari surilgan metaforaning universal kognitiv asosga ega ekanligi haqidagi g‘oyani tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, har bir model doirasida aniq lingvomadaniy farqlar mavjudligi ham yuzaga chiqadi. Eng ko‘zga tashlanadigan farq ichki nazorat modelida kuzatiladi. Ingliz tilida hissiyotni yashirish ko‘pincha psixologik bosim va salbiy oqibatlar bilan bog‘lanadi. Masalan, *to bottle up emotions* birligi hissiyotni sun‘iy ravishda berkitishni anglatadi va bu holat sog‘liqqa zararli deb baholanadi. O‘zbek tilida esa *sabr qilmoq* va *o‘zini bosmoq* kabi birliklar boshqacha baholovchi xarakterga ega: ular andisha, odob va axloqiy yetuklik

belgisi sifatida qabul qilinadi. Bu farq ikki madaniyatdagi hissiyotga munosabatning tubdan farqli ekanini ko'rsatadi.

Harorat va intensivlik modelida ham tilga xos xususiyatlar bor. Ingliz tilida harorat metaforalari asosan g'azab doirasida faol [2, C.21–23]. O'zbek tilida esa haroratning pasayishi (sovib qolmoq) munosabatdagi emotsional uzoqlashuvni ham ifodalaydi. Bu esa harorat modelining o'zbek tilida kengroq qo'llanish doirasiga ega ekanini ko'rsatadi.

Og'irlik modeli ham qiziq xususiyatni namoyon etadi. Ingliz tilida *heavy* so'zi asosan salbiy baho bilan bog'lansa-da, *heavy responsibility* kabi birikmalar ham mavjudki, bunda *heavy* o'zining salbiy konnotatsiyasini yo'qotadi. O'zbek tilida *og'ir* so'zining ikki qatlamli baholovchi xarakterini yanada yaqqolroq ko'rish mumkin. U ham qayg'uni, ham jiddiylik va vazminlikni bildirishi mumkin. Bunday ikkilamchilik o'zbek madaniyatida sabr va vazmunlikning yuqori qadrlanishi bilan izohlanadi.

Ijtimoiy munosabat modelida ikkala tilda ham umid bog'lanish, umidsizlik esa uzilish orqali tushuntiriladi. Ammo o'zbek tilida bu metaforalar ko'proq oilaviy va jamoa kontekstida namoyon bo'ladi, ingliz tilida esa individual hissiy tajriba markazda turadi. Bu holat Kövecses va A. Vejbitskaya tomonidan ilgari surilgan hissiyot tushunchalarining madaniyatga bog'liqligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi [2, C.19–22; 4, C.24–31].

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, hissiyot metaforalari faqat hissiy holatning ifoda vositasi emas, ular, shuningdek, madaniy tajriba, xulq me'yorlari va qadriyatlar tizimining til orqali namoyon bo'lgan ko'rinishi hamdir. Shu jihatdan metaforik modellarni qiyosiy o'rganish tillar o'rtasidagi yuzaki leksik farqlardan ko'ra chuqurroq, ya'ni konseptual darajadagi farqlarni ochib beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida hissiyot metaforalarining lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy aniqlashga qaratildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, hissiyotlar har ikkala tilda ham fazoviy yo'nalish, harorat va intensivlik, og'irlik va bosim, ichki nazorat hamda ijtimoiy munosabat modellari orqali ifodalanadi.

Biroq har bir model doirasida madaniyatga xos farqlar aniq kuzatiladi. Xususan, o'zbek tilida hissiyotni boshqarish va ichki nazorat ostida tutish ijobiy baholanadi, bu esa andisha va vazminlik kabi madaniy me'yorlar bilan bog'liq. Ingliz tilida esa hissiyotni ochiq ifodalash ko'proq tabiiy holat sifatida qabul qilinadi.

Tadqiqot natijalari hissiyot metaforalarini alohida birliklar yig'indisi sifatida emas, o'zaro bog'liq kategoriyalar tizimi sifatida ko'rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi. Kelgusida hissiyot metaforalarini yanada kengroq korpus asosida o'rganish va boshqa tillar bilan qiyoslash bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni boyitadi. Mazkur tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va til o'qitish amaliyotida qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
2. Kövecses, Z. (2000). *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge University Press.
3. Gibbs, R. W. (1994). *The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding*. Cambridge University Press.
4. Wierzbicka, A. (1999). *Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals*. Cambridge University Press.
5. Арутюнова, Н. Д. (1990). *Теория метафоры*. Прогресс.
6. Rahmatullayev, Sh. (1992). O'zbek tili frazeologik lug'ati. O'qituvchi.
7. Maħmudov, N. (2006). O'zbek tilining izohli semantikasi. Fan.
8. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. John Benjamins.
9. Banaruee, H., Farsani, D., Khatin-Zadeh, O., & Eskandari, Z. (2024). Metaphors across cultures. *Poznan Studies in Contemporary Linguistics*, 60(2), 133–158.
10. Zibin, A., & Solopova, O. A. (2024). Metaphors across languages, cultures and discourses: A research agenda. *Russian Journal of Linguistics*, 28(1), 7–32.
11. Ferré, P., Fraga, I., & Hinojosa, J. A. (2025). The interplay between language and emotion: Introduction to the special issue. *Cognition and Emotion*, 39(7), 1175–1183.
12. Hoemann, K., Lee, Y., Dussault, É., Devylder, S., Ungar, L. H., Geeraerts, D., & Mesquita, B. (2025). The construction of emotional meaning in language. *Communications Psychology*, 3, 99.
13. Allawama, A., Zibin, A., & Altakhaineh, A. R. M. (2025). Idioms as gateways to emotional expressions of sadness and joy in French. *Journal of Intercultural Communication*, 25(1), 83–97.